


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**FILOLOGIYA FANLARI BLOK MODULI BO‘YICHA  
UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING  
O‘QUV DASTURI  
( V SINF)**

**O‘ZBEK TILI**



## TUSHUNTIRISH XATI

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarining rus guruhlarida o'zbek tili kommunikativ-nutqiy tamoyilda ikkinchi til sifatida o'qitiladi. O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lishlari, barcha sohalarida erkin fikr almashishlari o'zbek tilidan egallaydigan nutqiy va lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot hamda mutaxassislik sohalarida og'zaki va yozma erkin muloqot yuritish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zbek tili fanidan 2-11-sinflar o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standartining talablari asosida tuzilgan.

### **O'zbek tili fanini o'qitishning maqsadi:**

o'quvchilarning o'qish va mehnat jarayonida, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini bayon eta olish, eshitilgan axborotni idrok etish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish; o'zbek adabiyotining eng sara namunalari, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy hayoti, jahon madaniyatiga va milliy madaniyatga hissa qo'shgan buyuk allomalar ijodiy merosini o'rganish orqali milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish malakasini rivojlantirishdan iborat.

### **O'zbek tili fanini o'qitishning vazifalari:**

o'quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarida faoliyat olib borishi uchun o'zbek tili fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish;

o'quvchilarning o'zbek tilida og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;

o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishni shakllantirishdan iborat.

5-9-sinflardan boshlab esa o'quvchilarga o'zbek tilida so'z tarkibi, so'zlarning yasalishi va o'zgarishi, so'z turkumlari, so'zlarning o'zaro bog'lanishi, so'z birikmasi hamda gap tuzish qonuniyatlarini o'rgatish yuzasidan nazariy bilimlarni berish ko'zda tutiladi. Ushbu bilimlar asosida hosil qilinadigan ko'nikma-malakalar bitiruvchilarda o'zbek tilida so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lab gap tuza olish, nutqning dialogik va monologik shakllarida erkin muloqot yurita olish kompetensiyalarini shakllantirishi lozim. Shundan kelib chiqib o'quv dasturida sinflar kesimida har bir nutqiy mavzu doirasida **leksik-grammatik minimum** (faol so'zlar, birikmalar, so'z shakllari), **muomala odobi**, **adabiy o'qish** va **ish qog'ozlarini yozish** yuzasidan materiallar berildi. Ushbu materiallar o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda 5-6-sinflarda **leksika**, **grammatika**, **muomala odobi**, **adabiy o'qish**; 7-9-sinflarda esa **leksika**, **grammatika**, **ish qog'ozlarini yozish** va **adabiy o'qish** sifatida taqsimlandi. Bunda **nutqiy kompetensiya** har bir sinf uchun uzviylik va uzluksizlik asosida belgilangan nutqiy mavzular va ular bo'yicha beriladigan faol so'z va birikmalar, nutq namunalari, **lingvistik kompetensiya** esa grammatik bilimlar va so'z shakllarida ifodalanadi. Grammatika bilan tanishtirishda 5-8-

sinflarda tilning morfologiya bo‘limiga oid ma’lumotlarni, 9-sinfda esa sintaksis bo‘limiga oid so‘z birikmasi va sodda gapga doir ma’lumotlarni soddadan murakkabga tomon izchillikda o‘stirib boriladi. O‘zlashtirilgan so‘zlar, birikmalar va egallangan bilimlar orqali o‘quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga erishiladi.

O‘zbek tilini o‘qitishda, shuningdek, muomala odobi va rasmiy muloqot yuritish hamda adabiy o‘qish bo‘yicha beriladigan materiallarning o‘rni ham nihoyatda muhim. Shunga ko‘ra, 5-sinfda muomala odobiga oid iboralar, 9-sinfda esa rasmiy ish qog‘ozlarini yuritishga oid ma’lumotlar berildi. Adabiy o‘qish materiallari ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlandi: 5-sinfda o‘quvchilarni ertaklar, she’rlar, topishmoq va maqollar bilan, 6-7-sinflarda hikoyalar, rivoyatlar, o‘zbek bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish, 8-9-sinflarda esa o‘zbek yozuvchilarining asarlaridan parchalar, publitsistik matnlar ustida ishlash ko‘zda tutildi. 10-11-sinflar o‘quv dasturida bilimlarni mustahkamlash asosida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma bog‘lanishli nutqini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Buni amalga oshirish uchun 10-sinfda sintaksis bo‘limiga doir nazariy bilimlar berish, so‘z birikmasi, sodda va qo‘shma gap, gap tuzilishi bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qildirish, 11-sinfda nutq uslublari va matn turlari bo‘yicha bilimlar berish orqali o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish rejalashtirildi. 10-11-sinflar o‘quv dasturiga kiritilgan yangiliklardan biri, o‘quvchilarni taniqli o‘zbek yozuvchi va shoirlarining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumotlar bilan tanishtirish, ularning eng sara asarlaridan o‘quvchining yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos parchalarni berish orqali ularni o‘zbek adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishtirish, nutqini o‘stirish, o‘zbek adabiy tili me’yorlarini singdirish ko‘zda tutilgan. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida sinfdan tashqari o‘qish uchun ham soatlar ajratildi.

O‘zbek tili fanidan o‘quv dasturidagi “Kun tartibim”, “Tejamkorlik”, “Suv – hayot manbai”, “O‘zbekistonning suv havzalari”, “Tejamkor bo‘laylik”, “Ekologiya va biz” kabi mavzularni o‘tishda “Tejamkorlik saboqlari” o‘quv qo‘llanmasidagi materiallardan unumli foydalanish mumkin. O‘qituvchilar mustaqil ijodiy yondoshgan holda o‘quv dasturi asosida o‘zbek tili fanining yillik taqvim-mavzu rejasini ishlab chiqishlari, fan metod kengashida muhokama qilib, maktabning pedagogik kengashida tasdiqlashlari lozim. O‘qituvchilarga metodik yordam sifatida dasturning oxirida fanlar kesimida o‘zbek tili fanini mavzuiy rejalashtirish jadvali taqdim etildi. Jadvalda tayyor taqvim-mavzu rejaning andozasi berilgan. Shu bilan biralikda dasturning oxirida foydalanilgan manbalar, shu asosida har bir mavzudan keyin adabiyotlar raqamlanib berildi. Har bir mavzu doirasida taqdim etilgan mazkur adabiyotlar o‘qituvchilarning bilimlarini mustahkamlab borishlariga xizmat qiladi.

## **O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:**

audiovizual vositalar orqali o'rtacha tezlikda berilgan xabarlar, kundalik muloqot yuritishga oid matnlarni tinglab tushunadi;

o'rganilgan mavzular bo'yicha matnlar mazmunini savol-javob shaklida, qisqa yoki to'liq so'zlab beradi;

o'zaro suhbatda kundalik muloqotda ishlatiladigan (murojaat etish va murojaatga javob berish, hol-ahvol so'rash va hol-ahvol so'rashga javob berish, rozilik yoki rad javobini berish, ruxsat so'rash va ruxsat berish, tabriklash va tabrikka javob berish, minnatdorlik bildirish, kechirim so'rash oid) muomala odobi elementlarini qo'llaydi;

narsa-buyum va shaxs otlari, egalik qo'shimchalari, kelishik qo'shimchalarini, maza-ta'm, rang-tus, hajm-o'lchov, xarakter xususiyat, ma'nodosh va zid ma'noli sifatlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llaydi;

o'rganilgan mavzular bo'yicha 31-40 ta so'zdan iborat diktant yozadi;

matnni topshiriqlar asosida to'ldirib yoki davom ettirib yozadi;

berilgan tayanch so'zlar, mavzu yoki rasm asosida 6-8 ta gapdan iborat bog'lanishli matn yozadi.

### **1. Mening Vatanim ( 5 soat)**

**Leksika:** vatan, viloyatlar, tumanlar, maskan, ulug', buyuk, ulkan, qurilish, bunyod etilmoqda, qurilmoqda, qadriyatlar, sanoat korxonalari, bog'lar, farovon hayot, obod turmush kabi tayanch so'zlar.

**Grammatika:** So'z turkumlari. Ot – so'z turkimi. Atoqli va turdosh otlar. **Muomala odobi:** Kundalik muomala odobi qoidalari.

**Adabiy o'qish:** Zafar Diyorning "G'unchalar", "Yashna Vatan" she'rlari

### **2. Oila a'zolarining ish kuni (5 soat)**

**Leksika:** oila a'zolari, ish kuni, barvaqt, ertalab, ish vaqti, o'qish, ish, korxonalar, shifokor, shifoxona, bog'cha, o'qituvchi, maktab, boradi, ishlaydi kabi tayanch so'zlar.

**Grammatika:** O'rin – joy otlari.

**Muomala odobi:** Kattalarga murojaat qilish shakllari.

**Adabiy o'qish:** E'zoza Alimovning "Mening oilam" Topishmoqli she'r.

### **3. Yangi fanlarni o'rganamiz (4 soat)**

**Leksika:** beshinchi sinf, yangi fanlar, endi, o'simliklar dunyosi, tarix, o'rganamiz, bilib olamiz, tanishamiz, yaxshi ko'raman kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Narsa-buyum otlari.

**Muomala odobi:** Tengdoshlar bilan o'zaro so'zlashish odobi.

**Adabiy o'qish:** Mo'g'ul xalq ertagi "Zehnli bola"

### **4. Ustozga rahmat (4 soat)**

**Leksika:** mehribon, g'amxo'r, talabchan, o'qish va yozishni o'rgatgan, ustozga murojaat qilmoq, topshiriqlarni bajarmoq, ustozlar ko'magida, ustozimga rahmat kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** - lar ko‘plik qo‘shimchasining qo‘llanishi.

**Muomala odobi:** Telefonda so‘zlashish odobi.

**Adabiy o‘qish:** Po‘lat Mo‘min. Ustozlar she’ri

#### **5. Mening sinfdoshlarim (4 soat)**

**Leksika:** sinfdoshlar, sinf sardori, baland bo‘yli, aqlli, tirishqoq, juda quvnoq, yoqimtoy qiz, a‘lo baholar, o‘qiydi, qiziqadi, yaxshi ko‘raman kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Egalik qo‘shimchalari.

**Muomala odobi:** Hol-ahvol so‘rash.

**Adabiy o‘qish:** Ikki o‘rtoq Hakim Nazir

#### **6. O‘zbek tili xonasi (4 soat,)**

**Leksika:** o‘zbek tili xonasi, xona devorlarida ilingan, taniqli o‘zbek yozuvchilari, shoirlarning suratlari, lug‘atlar, so‘zlashgichlar, qiziqarli mashg‘ulot kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Kelishiklar.

**Muomala odobi:** Murojaatlarga javob berish odobi.

**Adabiy o‘qish:** Yayra Sa’dullayeva “Boqi -toqi ” hikoya

#### **7. Oltin kuz (4 soat)**

**Leksika:** kuz, tabiat, oltin kuz, sariq barglar, oltindek mevalar, burkanadi, bog‘lar va polizlar, mo‘l hosil, yig‘im-terim vaqti, mevalar va sabzavotlar kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Qaratqich kelishigining qo‘llanishi.

**Muomala odobi:** Iltimos qilish odobi.

**Adabiy o‘qish:** Shukur Sa’dullaning “Oltin kuzim” she’ri

#### **8. To‘garak mashg‘ulotlari (4 soat)**

**Leksika:** to‘garaklar, mashg‘ulotlar, o‘zbek tili to‘garagi, she’rlarni ifodali o‘qish, matematika to‘garagi, masala yechish, bir oyda, masalaning yarmi, chorakam to‘rt, ikki yarim kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Egalik va qaratqich kelishigi qo‘shimchalarining birga qo‘llanishi.

**Muomala odobi:** Ruxsat so‘rash odobi.

**Adabiy o‘qish:** Muhiddin Omonning she’rlari

#### **9. Qishki ta’til (4 soat)**

**Leksika:** qish fasli, qishki ta’til, qorbo‘ron o‘ynash, tepalikdan sirpanish, muz ustida, konki uchmoq, chana uchmoq, qorbobo yasash kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Tushim kelishigining qo‘llanishi.

**Muomala odobi:** Ruxsat berish odobi.

**Adabiy o‘qish:** A.S. Pushkin. “Tilla baliqcha haqida ertak”

#### **10. Ertaklar olamida (5 soat)**

**Leksika:** ertaklar, o‘zbek xalq ertaklari, bir bor ekan, bir yo‘q ekan, juda qadim zamonda, mard va jasur, bahodir, pahlavon, yaxshilik, yomonlik, to‘g‘rilik, dovyurak, qo‘rqmas, saxiy, xasis, mehnatkash kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Jo‘nalish kelishigining qo‘llanishi. **-ga, -ka, -qa** qo‘shimchalarining talaffuzi va imlosi.

**Muomala odobi:** Kechirim so‘rash odobi.

**Adabiy o‘qish:** Xalq og‘zaki ijodi. “Aql va boylik” (o‘zbek xalq ertagi)

### 11. Mening darsxonam (5 soat)

**Leksika:** shinam, kitob javoni, bor, keng va yorug‘, maktabdan kelib, shug‘ullanish, tomoniga, yoniga, taxlab, yozuv stoli, ozoda, kitoblar, chap tomonida, xona derazasi, darsxonamda, tayyorlayman kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** O‘rin payt kelishigining qo‘llanishi.

**Muomala odobi:** Kechirim so‘rashga javob odobi.

**Adabiy o‘qish:** Hulkar Hamroyevaning “Mehnatning tagi rohat” hikoyasi

### 12. Shahrimiz (qishlog‘imiz) bo‘ylab sayohat (5 soat)

**Leksika:** bahorgi ta‘til, ta‘til kunlari, shahar bo‘ylab sayohat, bayramga tayyorgarlik, Navro‘z sayillari, zamonaviy binolar, muzeylar, qadimiy obidalar, katta taassurot kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Chiqish kelishigining qo‘llanishi.

**Muomala odobi:** Minnatdorlik bildirish odobi.

**Adabiy o‘qish:** Publitsistik matn. “Toshkent” matni

### 13. Onajonlar bayrami (5 soat)

**Leksika:** onajonlar, buvijonim, qadrli, singlim, guldasta, tabriklamoq, uzoq umr, tilamoq, sovg‘a tayyorlamoq, o‘z qo‘li bilan yasamoq, xursand qilmoq kabi tayanch so‘z va birikmalar;

**Grammatika:** Sifat so‘z turkimi haqida ma‘lumot

**Muomala odobi:** Tabriklashga oid so‘z va jumlar.

**Adabiy o‘qish:** Miraziz A‘zam. “Onam ishdan keladi” she‘ri.

### 14. Assalom, Navro‘z! (5 soat)

**Leksika:** qadimdan, yil boshi, qariyalar, ziyorat, mehr-muruvvat, hashar, sayil, tozalamoq, sumalak pishirmoq kabi tayanch so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar.

**Muomala odobi:** Tabrikka javob berishga oid so‘z va jumlar.

**Adabiy o‘qish:** Xalq og‘zaki ijodi. “Sumalak” rivoyati

### 15. Qadimiy shaharlar (5 soat)

**Leksika:** qadimiy shaharlar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, ko‘p ming yillik tarixga ega, qadimiy obidalar, muzey-shaharlar, sayyohlar, turli mamlakatlar kabi tayanch so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Hajm-o‘lchovni bildiruvchi sifatlar.

**Muomala odobi:** Minnatdorlik bildirish.

**Adabiy o‘qish:** Safar Barnoyev. “Minora” she’ri

**16. Odobli bo‘l.(5 soat)**

**Leksika:** kasblar, kasb egasi, kasb ustasi, kasb tanlash, hunar o‘rganmoq, sohaga o‘qimoq, bilim olish, kasbni egallash, shug‘ullanadi, qiziqtiradi kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Insonga xos xususiyatni bildiruvchi sifatlar

**Muomala odobi:** Kechirim so‘rashga oid so‘z va jumlar.

**Adabiy o‘qish:** Xalq og‘zaki ijodi.

**17. Ko‘cha qoidalari (5 soat)**

**Leksika:** yo‘lovchilar, haydovchilar, ko‘chadan o‘tish qoidalari, piyoda yurish, yo‘l belgilari, qoidani buzish, man etilgan, svetofor chiroqlari, kesib kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Rang bildiruvchi sifatlar

**Muomala odobi:** Minnatdorlikka javob berish.

**Adabiy o‘qish:** I. A. Krilov. “Ninachi va chumoli”

**18. Dam olish kuni (4 soat)**

**Leksika:** dam olish kuni, oilamiz bilan, nonushta qilamiz, pishirib keladilar, uylarni yig‘ishtiraman, hovli-ko‘chalarni supuradi, birga o‘ynaymiz, kitob o‘qiymiz kabi tayanch so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Shakl bildiruvchi sifatlar

**Muomala odobi:** Kechirim so‘rashga javob qaytarish.

**Adabiy o‘qish:** Abdurahmon Akbar “Dam olish kunida”she’ri